

## QO'CHQOR NORQOBILNING "ETIKCHALAR" HIKOYASIDAGI ONA OBRAZI TAHLILI, SHAKL VA MAZMUN HODISASI

**Ziyaudinova Gulnoza Iqboljon qizi**

*ADPI asisstant o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada Afg'on urushi oqibatida farzandi halok bo'lgan ona obrazi psixologik tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *shakl va mazmun, ijtimoiy ong, syujet, obraz, nutqiy xarakteristka, tipiklashtirish, so'ngso'z.*

**Abstract:** *this article psychologically analyzes the image of a mother whose child was killed in the Afghan war.*

**Аннотация:** *в данной статье психологически анализируется образ матери, ребенок которого погиб на Афганской войне.*

XXI asr o'zbek nasri rivojida Qo'chqor Norqobildek adibning ham munosib va yetarlicha o'z mehnati va o'rni bor. Uning "Daryo ortidagi yig'i", "Biz ham odammiz", "Zamindan olis ketma", "Bu yerlarda hayot boshqacha" kabi hikoya va kinoqissa to'plami drama, pyesa va bir qancha qator asarlari bugungi kun yoshlari orasida sevib mutolaa qilib kelinmoqda.

Qozoqboy Yo'ldoshev aytganidek: "san'at va adabiyotda hayot timsol (obraz)lar orqali aks ettiriladi, ya'ni badiiy yaratiqda shunday konkret va betakror narsa-hodisalar tasvirlanadiki, umumlashtirish xususiyati aynan ularning konkretlik va betakrorligida mavjud bo'ladi. Mantiqiy tushunchadan farq qilib, badiiy obraz tafakkur bilan birga sezimlarga ham ta'sir ko'rsatish xususiyati va qudratli hissiy-kechinmaviy ishontirish kuchiga ham egadir. Obrazlilik san'atga tegishli ekaniga ko'ra ham, yuksak mahorat natijasi o'laroq ham badiiylikning asosidir. Ayni obrazlilik xususiyatiga ega ekani bois badiiy asarlar estetik fazilat va qimmat kasb etadi." Yozuvchi ayol obrazi orqali urush alamini konkret ifoda etgan. Tahlilda biz ko'rib chiqishimiz kerak bo'lgan yana bir hodisa – shakl va mazmun bo'lib, D. Quronovning bu boradagi qarashlariga nazar tashlaymiz "Voqelikda mavjud narsalarning bari o'zining tashqi ko'rinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyatiga (mazmun) ega. Shu bois ham "shakl" va "mazmun" kategoriyalari umumfalsafiy xarakterga ega bo'lib, ular voqelikni (narsani) idrok qilishda muhim ahamiyatga molik ilmiy abstraksiyalar sanaladi. Abstraksiya deyishimizning boisi shuki, shakl va mazmun qabilidagi bo'linish shartli, negaki ular – yaxlit bir narsada har vaqt birlikda mavjud bo'lgan va bir-birini taqozo etadigan ikki tomon. Zero, shakl narsaning biz bevosita ko'rib turgan, his qilayotgan tomoni bo'lsa, ayni shu shakl bizga o'sha narsaning nima ekanligini – mazmun-mohiyatini anglatadi. Masalan, qarshimizda stul turgan bo'lsa, biz uning shaklini ko'rib "stul", ya'ni, "o'tirish uchun mo'ljallangan moslama" deb aytamiz. Stulga xos bo'lgan tashqi ko'rinish uning

shakli bo'lsa, mazmuni shu shakl ifodalayotgan "o'tirish uchun mo'ljallangan moslama" ekanligidir. Ko'ramizki, shakl mazmuni ifodalaydi, mazmun muayyan shakldagina reallashadi, mavjud bo'la oladi. Aytaylik, o'sha stulning shaklini parokanda qilsak – qismlarga ajratib yuborsak, shaklning yo'qolishi bilan mazmun ham yo'qoladi, zero, endi narsaning o'zi ham mavjud emas. Demak, mazmun muayyan shakldagina yashaydi, shaklsiz mazmun bo'lmaganidek, mazmunsiz shakl ham mavjud emas. Shakl va mazmun munosabati haqida so'z borganda, mazmunning yetakchiligi, uning shaklni belgilash xususiyati haqida aytiladi. Badiiy asar qimmatini belgilashda mazmun va shaklning uyg'un muvofiqligi eng muhim mezonlardan sanaladi. Badiiyat go'zal shaklda ifodalangan aktual, umuminsoniy qadriyatlarga mos mazmuni taqozo qiladi. Adabiyotshunos badiiy asarni tahlil qilarkan, uning diqqat markazida shakl yoki mazmun turishi mumkin. Lekin asosan shaklga e'tiborni qaratgani holda ham adabiyotshunos shaklning mazmun jihatlarini nazardan soqit qilolmaydi; asarning mazmun jihatini tekshirayotgan olim ham o'sha mazmunning muayyan shaklda ifodalanayotganini unutmashligi shart qilinadi."

"Bu yerlarda hayot boshqacha" to'plamidagi "etikchalar" hikoyasini tahlilga tortadigan bo'lsak, kichik hikoya bo'lsa-da hikoya syujetining o'quvchiga ta'sir doirasi yuqori. Hikoyaga nazar tashlasak:

"Bu urushda etikchalar egasiz qoldi.

Ayol etikchalarni xona burchagiga olib borib qo'ydi."

Ko'rinib turibdiki bu yerda "tipiklashtirish" orqali yozuvchi bittagina ayol obrazida Afg'on urushida bir qancha ayollarning farzand dog'i dardini ham ochib bergan. Etikcha shakli orqali u bolaga tegishli detalligini, uning mazmun tomoniga qarasaq etikchanning egasi daxshatli urush tufayli egasiz qolganini ham anglaymiz. Endi shakl mazmunsiz qadri qolmaganini ko'rishimiz mumkin.

Qani o'tirib tur, - deya etikchalar tumshug'ini devorga taqadi.

Egasiz etikchalar devor burchida chorak soat turdi:

Ayolning rahmi keldi:

- Boshqa to'polon qilmagina, xo'p-mi?! U etikchalarni ko'ksiga bosdi. So'ng stulchaga olib kelib qo'ydi:

- Qani endi ovqatingni yeb ol!...

Ayol obrazi va uning nutqiy xarakteristikasidan kelib chiqib, shuni anglashimiz mumkinki, avvalgi bolasining to'polonlarini sog'inganini, uni devor burchagiga qo'yish orqali jazo berib, o'zbek ayollariga xos bo'lgan yo'lni tutib, tarbiya qilganini, bolasi avvalari uyini to'ldirib, fayz berganini idrok qilsak bo'ladi. Ayol stulchanning ham bo'sh qolishini ko'tara olmaganidan etikchalarni aynan shu yerga qo'yadi. Etikchaga ovqat tutish orqali, farzandi o'limini xazm qila olmaganini ko'rishimiz mumkin.

Ayol etikchalarga uzoq tikilib turdi. Nimadir yodiga tushganday bo'ldi. So'ng... so'ng... chinqirib yig'lab yubordi.

Etikchalar sohibasi bor-yo'g'i olti yoshdagina edi.

Yozuvchi so'ngso'z o'rnida vafot etgan ayol farzandi qiz bola ekanini, uning yoshi endigina olti yoshda ekanini yozib hikoyaga yakun yasaydi.

Ayol uchun farzandining o'limidan-da daxshatliroq bir musibat bo'lmasa kerak. Yozuvchi qisqagina hikoyasida urushning naqadar bir ayanchli jarayon ekanligiga tarif bergandek go'yo.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qo'chqor Norqobil. "Bu yerlarda hayot boshqacha". G'. G'ulom – 2018.
2. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent "Akademnashr" 2010.
3. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. "Badiiy tahlil asoslari". Toshkent 2016.
4. Dilmurod Quronov. "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent "Navoiy universiteti" 2018.